



*Дилдора ХОЛБОЕВА,
Тошкент тиббиёт академияси
Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси
инглиз тили ўқитувчиси
E-mail: kholboeva85@mail.ru*

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “TURIZM” TERMINLAR TIZIMINING LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATI**

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikda terminologiyaning ahamiyati hamda turizm sohaga oid terminlarning tahlili amalga oshiriladi. Bundan tashqari maqolada turizm turlari va maqsadlari yorqin ifodalab beriladi. Turizmga oid atamalarni o‘rganish jarayonida nazariy yondashuvning ahamiyati va tatbiq etilayotgan ma’nosini nutqda qo‘llash maqsadga muvofiqligi, alohida tizim sifatida mavjud muammolarning tadqiqotga jalb qilinishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: turistik matnlar; turistik mutaxassis; turizm terminologiyasi; termin tahlili; buklet; broshyura; katalog.

**LINGUOCULTUROLOGICAL PECULIARITIES OF THE SYSTEM OF TERMS “TOURISM” IN ENGLISH AND
UZBEK LANGUAGES**

Abstract

This article analyzes the importance of terminology in linguistics and terms related to tourism. In addition, the article vividly describes the types and purposes of tourism. In the process of studying the term tourism, the importance of the theoretical approach and the appropriateness of applying the applied meaning in speech, as well as the involvement of existing problems in research as a separate system.

Keywords: tourist texts; tourism specialist; tourism terminology; term analysis; booklet; brochure; catalog.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМЫ ТЕРМИНОВ «ТУРИЗМ» В АНГЛИЙСКОМ
И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация

В статье анализируется важность терминологии в лингвистике и терминов, связанных с туризмом. Кроме того, в статье ярко описаны виды и цели туризма. В процессе изучения термина «туризм» важность теоретического подхода и целесообразности применения прикладного значения в речи, а также вовлечение существующих проблем в исследования как отдельная система.

Ключевые слова: туристические тексты; специалист по туризму; терминология туризма; срочный анализ; буклет; брошюра; каталог.

Kirish. Zamon rivojlanib, insonlar uchun turli soha eshiklari ochilmoqda, bu esa tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi, albatta. Tilshunoslikning terminologiya yo‘nalishida nisbatan yangi bo‘lgan turizm teminologiyasi ham yangi atamalar bilan kengaymoqda. Mazkur sohasining rivojlanishi, albatta, ichki iqtisodiy tuzilmalarning takomillashishiga, shu bilan birga, mazkur soha bilan bog‘liq ravishda faoliyat olib boruvchi sohalarning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo sayohat qilish, doimiy yashash joyidan boshqa joyda dam olish, yangi hududlarni ko‘rish yoki shifobaxsh hududlarda salomatligini tiklash uchun katta moliyaviy mablag‘lar talab etilishi ham sir emas. Bu mablag‘lar kerakli manzilga yetib borish, tunab qolish va joylashish, ovqatlanish va shu kabi turli xizmatlardan foydalanganligi uchun sarflanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari qisman davlatning ijtimoiy himoya siyosatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu aholi guruhlariga maxsus sayohatlar uyushtirish tizimlari joriy etilgan va ular orqali

turizm xizmatlari aynan aholining kam ta’minlangan qatlamlariga xizmat qilishi ta’minlangan.

Turizm sohasi temuriylar davrida ham mavjud bo‘lgan. Buni o‘sha davrlarda qurilgan karvonsaroylar va tuyalarda qilingan safarlar orqali xulosa qilishimiz mumkin. Shundan amin bo‘lamizki, temuriylar zamonida ham unga alohida e’tibor qaratilgan. Ya’ni Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va uning avlodlari zamonida yanada gullab yashnagan.

Turizm turistik tashkilotlar tomonidan qonuniy tarzda amalga oshiriladigan soha bo‘lib, u bir necha xil turlarga bo‘linadi: ichki turizm, xalqaro turizm, havaskorlik turizmi, biznes turizm, ekoturizm, sport turizmi, avtoturizm, bilim saviyasini kengaytirish uchun olib boriladigan turizm va boshqalar.

Turizm terminologiyasini tadqiq etar ekanmiz, uning tarjima sohasidagi ahamiyatli jihatlari ham e’tibor qaratishimiz lozim. Turizmga oid matnlarda qo‘llanilgan atamalarni tahlil qilib, ularni quyidagi terminlar guruhlariga ajratdik. Masalan:

Ingliz

O'zbek

<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/> agro tourism / agro-tour	<input type="checkbox"/> agrar (qishloq xo'jaligi turizmi) turizm
<input type="checkbox"/> extreme tours	<input type="checkbox"/> ekstremal turizm
<input type="checkbox"/> sustainable tourism	<input type="checkbox"/> barqaror turizm
<input type="checkbox"/> incentive tour	<input type="checkbox"/> rag'batlantiruvchi sayohat;
<input type="checkbox"/> rural tourism	<input type="checkbox"/> qishloq sayohati
<input type="checkbox"/> space tourism	<input type="checkbox"/> fazo(kosmik) turizmi
<input type="checkbox"/> culinary tourism	<input type="checkbox"/> oshxona turizmi.

Turizmning yangi turlarini paydo bo'lishi tilshunoslikda yangi terminlarning olib kirilishiga sabab bo'lmoqda. Shulardan biri biznes turizmi hisoblanadi. Hozirgi o'zbek tilining ko'p ishlatiladigan izohli lug'atida biznes (inglizcha business-ish, mashg'ulot) daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko'zlangan har qanday tashkiliy, xo'jalik faoliyati; tijorat; ishbilarmonlik degan ma'nolari izohlagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. J. Javliyevaning "Terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili" nomli maqolasida shunday keltiriladi: Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deb izohlanadi. Terminologiya har bir til so'z boyligining juda katta qismini tashkil etadi. Uning juda tez rivojlanishi ham bejiz emas, chunki u yangi so'zlar yasash imkonini beradi. Biror tiling terminologiyasi ko'p terminlar tizimidan tashkil topgan. Bilim, sanoat yoki madaniyatning biror maxsus sohasidagi biror so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so'zning mazmuni mavzuli biror adabiyotda izohlash orqali talqin qilinadi. So'z ifodasi lingvistik termin deb hisoblanishi mumkin deb yozgan edi Z.Xarris va I.F.Frizyslar. Ular deskriptiv lingvistika tarafdorlaridan bo'lib, so'z ifodasini quyidagicha ta'riflaydilar: "So'z ifodasi insonning har qanday nutqi bo'lib, u sukutdan oldin yoki keyin ifoda etilishi mumkin". Fanning har bir bo'limi yoki maktabi o'z tabiati va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo'lib, o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo'shadi³.


Tadqiqot metodologiyasi. Har bir sohaning o'ziga xos terminologiyasi mavjud bo'lgani kabi turizm terminologiyasi ham o'zbek terminologik sistemasida katta o'rinni egallaydi. Uning boyib borishida lingvistik va ekstralingvistik omillar ajratiladi. O'tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o'zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan

o'zlashgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, to'g'ridan-to'g'ri chet tillaridan o'zlashtirilayotganini guvohi bo'lamiz.

Tahlil va natijalar. Turizmning barcha turiga oid bo'lgan terminlar mavjud. Ular mazkur tur vakillari tomonidan keng foydalaniladi: *Guide* – yo'riqnoma, *event organizer* – tadbir tashkilotchisi, *chef* – oshpaz, *travel agent* – sayohat agenti, *kitchen assistant* – oshxona yordamchisi, *airport baggage handler* – aeroport yuk tashuvchisi, *tourist information centre assistant* – sayyohlik axborot markazi yordamchisi, *delivery assistant* – yetkazib berish bo'yicha yordamchi, *sports therapist* – sport mutaxassisi, *resort representative* – kurort vakili, *air traffic controller* – havo harakati nazoratchisi, *excursion* – ekskursiya (sayohat qilish), *itinerary* – yo'nalish, *overnight* – kun davomida, *local venue* – mahalliy maskan(hudud), *sightseeing* – diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, *city guide* – yo'l boshlovchi, *departure point* – chiqish nuqtasi, *meeting point* – uchrashuv nuqtasi, *driver-guide* – haydovchilar uchun qo'llanma.

Turizm sohasida shunday terminlar borki, ularning qo'llanish doirasi cheklangan, ya'ni ma'lum turda foydalaniladi. Misol tariqasida, biznes turizmiga oid bo'lgan so'zlarning o'zbek tilidagi leksik-semantik ma'nolarini quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz:

³ J. Javliyeva, Terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, "Science and education" scientific journal, 2020, 451-452-betlar.



Reys	Kema, samolyot, mashina kabi transport vositalarining ma`lum mashrut bo`yicha qatnov yo`li.
Flotel	Suzib yuruvchi mehmonxona kemasi. Suvdagi ulkan otel, maxsus jihozlangan bo`ladi. Qulay nomerlardan tashqari, yaxshi dam olish uchun qulaylik yaratilgan, vaqtinchalik ofisdan foydalanish, operativ vosita aloqalari: telefon, kseroks, faks va boshqa xizmatlar ko`rsatiladi.
Rotel	Harakatlanuvchi mehmonxona, vagon ko`rinishidagi bir yoki ikki o`rinli nomerga ega bo`lgan, kiyinish xonasi, umumiy ovqatlanish, umumiy xojatxonaga ega bo`lgan mehmonxona.
Bronlash	Muayyan turist uchun mehmonxona xonalaridan birining, transport vositasining, madaniy tomosha uchun biletni oldindan bandlash
Vaucher	Ko`rsatiladigan asosiy xizmatlarning (mehmomxonada to`xtash, ovqatlanish, transport va b.) haqqi to`langanligi haqida tasdiqlangan hujjat.
Tranzit	Bir hududdan ikkinchi hududga uchinchi hudud orqali 24 soatdan ko`p bo`lmagan vaqtdayo`lovchi, yuk kabilarni olib o`tish. Bu termin <i>tranzit yuk</i> , <i>tranzit yo`lovchi</i> kabi birlikma shaklidagi boshqa terminlarni hosil qilishda ham qatnashadi.

Yuqoridagi jadvalda chet tillaridan o`zbek tiliga kirib kelgan biznes turizmga oid so`zlar va ularning ma`nolari keltirib o`tildi. Ushbu terminlar kundalik faoliyatda keng foydalanilgani tufayli ma`nolari barchaga tushunarli. Biznes sohasida faoliyat olib boradigan barcha tashkilot va korxonalar ishlari uchun mazkur terminlar asos bo`lib xizmat qiladi.

So`zimiz avvalida ta`kidlaganmiz kabi, turizmning barcha turlarida o`ziga xos terminlari mavjud. Turizmning yana katta turlaridan biri ekoturizm hisoblanadi. Mazkur turizm sohasida ham o`zbek tiliga olib kiritilgan terminlar talaygina.

Ekoturizm bu tabiiy muhitga zarar etkazmasdan yoki aholini bezovta qilmasdan, tabiatni his qilishdir. Ekoturizm har tomonlama toza, noyob osori-antiqalarga boy joylarda amalga oshiriladigan tabiat turizmi sanaladi. Mazkur turizm orqali o`sha yerda yashaydigan tub aholini iqtisodiy ahvolini yaxshilash ham ko`zda tutiladi. M. Q. Pardayevning "Ekologik turizmning turlari" nomli maqolasida ekoturizmning belgilari va maqsadi haqida fikr yuritadi: "Shu jihatdan mamlakatimizda turizmning barcha turlari mavjud. Ulardan biri ekologik turizmdir. Ekologik turizmni to`g`ri anglash uchun uning turlarini aniqlab olish lozimdir. Ekoturizm ham boshqa turizm singari bir qancha xillarga bo`linadi. Bularni tadqiq qilish uchun uning turli belgilari bo`yicha tasniflanishini ko`rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada ham turli qarashlar mavjud. Mazkur sohaga turli nuqtai nazardan yondashish mumkin. Masalan, turistik xizmatlarni tashkil qilgan investorlarining manfaati bo`yicha, turistlarning yoshi va kasbi bo`yicha, ekoturizmni tashkil qilish maqsadlari bo`yicha kabi belgilarni ham davom ettirish mumkin. Shu tufayli mazkur rasmda keltirilgan belgilarni etodologik asos sifatida qabul qilish lozim, deb hisoblaymiz. Har bir yo`nalishni to`g`ri anglash uchun ularning har biriga qisqacha izoh berishni taqozo qiladi.

Ushbu keltirilgan ekologik turizmning turlari shartli ravishda biz tomonimizdan to`rt guruhga bo`lingan: - ilmiy turizm; - madaniy va ijtimoiy qadriyatlar turizmi; - sarguzashtli turizm; - tabiat turizmi"⁴.

Ekoturizm turizmning quyidagi xususiyatlarga ega shakllarini anglatadi:

1. Sayyohlarning asosiy motivatsiyasi tabiatni kuzatish va qadrlash bo`lib turadigan barcha tabiatga asoslangan turizm turlari, shuningdek tabiiy hududlarda tarqalgan an'anaviy madaniyatlar.

2. Unda tarbiyaviy va talqin qilish xususiyatlari mavjud.

3. Bu tabiiy va ijtimoiy-madaniy muhitga salbiy ta`sirlarni minimallashtiradi.

4. U ekoturizmning diqqatga sazovor joylari sifatida foydalaniladigan tabiiy hududlarni saqlashni qo`llab-quvvatlaydi:

- Tabiatni muhofaza qilish maqsadida tabiiy hududlarni boshqaradigan mezbон jamoalar, tashkilotlar va hokimiyat uchun iqtisodiy foyda olish;

- mahalliy jamoalar uchun muqobil ish va daromad olish imkoniyatlarini ta`minlash;

- Mahalliy aholi va sayyohlar o`rtasida tabiiy va madaniy boyliklarni saqlash bo`yicha xabardorlikni oshirish.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, O`zbek tilida turizm terminologiyasi shakllanish bosqichida bo`lib, soha rivoji natijasida uning tarkibi yangi maxsus birliklar bilan boyib bormoqda. Turizm iqtisodiy faoliyat natijasida dastlab Angliyada vujudga kelganligi uchun uning vatani sifatida shu hudud e`tirof etiladi. Shuningdek, xalqaro turizm

⁴ M.Q. Pardayev, Ekologik turizm turlari, Toshkent, 2006, 49-bet.

terminologiyasida ingliz tilining yetakchi mavqeda ekanligini inobatga olsak, o'zbek tilidagi o'zlashmalarning asosiy qismi shu tildan o'zlashganligi tabiiy holdir, albatta.

Ikki til ya'ni ingliz va o'zbek tillarini bir soha – turizm terminologiyalari bo'yicha qiyoslaganimizda, o'zbek tilida ayrim terminlarning o'z holicha, ayrimlarining muqobil varianti qo'llanganligining guvohi bo'ldik. Ingliz tilida ko'plab terminlar inglizchada berilgan. Ammo bu tilda ham boshqa tillardan olinga so'zalarni uchratishimiz mumkin.

Xulosa. O'zbek tilidagi mavjud turizm terminlarining izohli, elektron va tarjima lug'atlarini yaratish o'zbek terminologiyasining muhim vazifalardan biridir. Izohli lug'atlarda, turistik terminlar uchun tuziladigan maxsus lug'atlarda terminlarning berilishi va izohlanishi o'quvchining shu fan borasidagi eng zaruriy va umumiy tushunchalar bilan tanishishiga va uning bilim saviyasini oshirishga, bundan tashqari shu sohaga qiziqish paydo qilishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Dann G.M.S., *The Language of Tourism – A Sociolinguistic Perspective*, Oxford: CAB International, 1996, 294 p.
2. Dann M.S., *Remodelling a Changing Language of Tourism: from Monologue to Dialogue and Trialogue*, PASOS 10, 2012, 450 p.
3. Denisova G., Drozd, A., Romanovich R. *Tourism Terminology in Social, Linguistic and Translation Contexts (Mezhkulturnaia kommunikatsiia i obucheniie inostrannym iazykam)*, Oxford: CAB International, 2011, 356 p.
4. Duff A. *The Third Language: Recurrent Problems of Translation into English*. Oxford: Pergamon, 1981, 645 p.
5. Mirzayev M, Aliyeva M. *Turizm asoslari*.- Toshkent, 2011.
6. <https://tourismnotes.com/eco-tourism/>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/terminologiya-masalalari-bo-yicha-ilmiiy-adabiyotlar-tahlili>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terminologiya>
9. <https://svastour.ru/articles/puteshestviya/vidy-turov/turizm.html>